

## HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH

**Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi**

O‘zJOKU, “Mediamenejment va mediamarketing” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [jalolovasarvinoz1993@gmail.com](mailto:jalolovasarvinoz1993@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda mavjud yondashuvlarning cheklanganligi tahlil qilinib, ushbu muammoni bartaraf etish uchun integrallashgan indikatorlar tizimi taklif etilgan. Tadqiqot tizimli va solishtirma tahlil usullariga asoslanib, kichik sanoat zonolari samaradorligini baholashda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda boshqaruv, infratuzilma, innovatsiya va kooperatsiya omillarini kompleks qamrab olish zarurligini asoslaydi. Tadqiqot doirasida hududiy kichik sanoat zonalarining real holatini baholash va hududlararo taqqoslash imkonini beruvchi indikatorlar tizimi taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish hamda kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** kichik sanoat zonolari, hududiy rivojlanish, samaradorlikni baholash, integrallashgan indikatorlar tizimi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion rivojlanish, sanoat infratuzilmasi.

### Аннотация

В данной статье проанализированы ограничения существующих подходов к оценке эффективности территориальных малых промышленных зон и предложена интегрированная система индикаторов для устранения данной проблемы. Исследование, основанное на системном и сравнительном анализе, обосновывает необходимость комплексного охвата факторов не только экономической эффективности, но и управления, инфраструктуры, инноваций и кооперации при оценке эффективности малых промышленных зон. В рамках исследования предлагается система индикаторов, позволяющая оценить реальное состояние территориальных малых промышленных зон и проводить межрегиональное сравнение. Результаты показывают, что предложенный подход имеет важное значение для совершенствования региональной промышленной политики и принятия практических решений по развитию малых промышленных зон.

**Ключевые слова:** малые промышленные зоны, региональное развитие, оценка эффективности, система интегрированных индикаторов, организационно-экономические механизмы, инновационное развитие, промышленная инфраструктура.

### Abstract

This article analyzes the limitations of existing approaches to evaluating the effectiveness of regional small industrial zones and proposes an integrated system of indicators to address this issue. Based on systematic and comparative analysis methods,

the study substantiates the need for a comprehensive approach that incorporates not only economic efficiency but also factors such as management, infrastructure, innovation, and cooperation when assessing the performance of small industrial zones. The research introduces an indicator system that allows for the evaluation of the current status of regional small industrial zones and enables interregional comparison. The findings demonstrate that this approach is of significant importance for improving regional industrial policy and making practical decisions regarding the development of small industrial zones.

**Keywords:** small industrial zones, regional development, efficiency assessment, integrated indicator system, organizational and economic mechanisms, innovative development, industrial infrastructure.

## KIRISH

hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish masalalari ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda kichik sanoat zonalari (KSZ) hududiy sanoatni rivojlantirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida shakllangan [1].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik sanoat zonalari hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish hamda sanoat infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [2]. Ayniqsa, Xitoy, Turkiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda kichik sanoat zonalari hududiy iqtisodiy o‘shishning “tayanch nuqtalari” sifatida faoliyat yuritib, ularning samaradorligi puxta rejalashtirilgan infratuzilma, aniq boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy rag‘batlar tizimi bilan ta‘minlanganligi bilan izohlanadi [3].

O‘zbekiston Respublikasida ham hududlarni kompleks rivojlantirish, sanoatni hududlar kesimida joylashtirish va kichik ishlab chiqarish subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida hududlarda yangi kichik sanoat zonalari barpo etilib, ularda ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda hamda rezidentlar uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etilmoqda [4]. Biroq kichik sanoat zonalarining real iqtisodiy samaradorligi, ularning hududiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi va mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi masalalari yetarli darajada tizimli baholanmayotgani kuzatiladi [5].

Amaldagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik sanoat zonalari samaradorligini baholashda ko‘pincha alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar – ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar miqdori yoki bandlik darajasi – bilan cheklaniladi [6]. Bunday yondashuvlar esa boshqaruv sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion faollik va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya kabi muhim omillarni kompleks hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada kichik sanoat

zonalarining haqiqiy holatini aks ettiruvchi, hududlararo taqqoslashga imkon beradigan yaxlit baholash tizimi shakllanmay qolmoqda [7].

Shu munosabat bilan kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda integrallashgan indikatorlar tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Integrallashgan yondashuv kichik sanoat zonalarini faoliyatining turli jihatlarini – tashkiliy, infratuzilmaviy, iqtisodiy va innovatsion omillarni – o‘zaro bog‘liqlikda baholash imkonini berib, hududiy sanoat siyosatini asoslantirishda muhim ilmiy-uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi [8].

Mazkur maqolaning maqsadi hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda qo‘llanilayotgan yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni to‘ldiruvchi integrallashgan indikatorlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari kichik sanoat zonalarining real holatini yanada to‘liq baholash, hududlar o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkazish va ularning rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda amaliy ahamiyat kasb etadi [9].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy kichik sanoat zonalarining (KSZ) iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ularning samaradorligini baholash masalalari so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ilmiy adabiyotlarda kichik sanoat zonalarini, asosan, hududlarda sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlovchi institutsional mexanizm sifatida talqin etiladi [1]. Ushbu yondashuvda KSZlar hududiy sanoat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Bir qator xorijiy tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarini samaradorligi, asosan, iqtisodiy natijalar orqali aniqlanadi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmi, jalb etilgan investitsiyalar, bandlik darajasi va soliq tushumlari asosiy baholash mezonlari sifatida qo‘llaniladi [2], [3]. Mazkur yondashuvlar kichik sanoat zonalarining iqtisodiy hissasini miqdoriy jihatdan baholash imkonini bersada, ularning faoliyatini kompleks va tizimli tahlil qilish uchun yetarli emasligi ta‘kidlanadi. Chunki faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayanish zonalarini boshqarish sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi va ichki tashkiliy jarayonlarning samaradorligini to‘liq aks ettirmaydi [4].

Ayrim tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining samaradorligi infratuzilmaviy ta‘minlanganlik bilan bog‘liq holda baholanadi. Bunda transport-logistika tizimlari, energetika ta‘minoti, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ishlab chiqarish maydonlarining tayyorlik darajasi asosiy mezon sifatida ko‘riladi [5]. Infratuzilmaviy yondashuv KSZlarning faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash imkonini bersada, u zonalar faoliyatining yakuniy natijalari hamda rivojlanish istiqbollari baholashda cheklangan hisoblanadi [6].

Ilmiy adabiyotlarda kichik sanoat zonalarining institutsional va boshqaruv jihatlarini baholashga qaratilgan yondashuvlar ham uchraydi. Ushbu tadqiqotlarda zonalarini boshqarish modeli, vakolatlarining aniqligi, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va rezidentlar bilan o‘zaro munosabatlar samaradorlikka ta‘sir etuvchi muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi [7]. Biroq mazkur yondashuvlar ko‘pincha sifat

tavsiflari bilan cheklanib, ularni hududlar kesimida miqdoriy solishtirish imkoniyatlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan [8].

So‘nggi yillarda samaradorlikni baholashda integrallashgan yondashuvlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunday yondashuvlar iqtisodiy, infratuzilmaviy, institutsional va innovatsion ko‘rsatkichlarni yagona tizimda birlashtirish orqali baholashni nazarda tutadi [9]. Integrallashgan indikatorlar va indekslar hududiy obyektlarning umumiy holatini yanada to‘liq aks ettirish hamda hududlararo solishtirma tahlil o‘tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud integrallashgan baholash modellari, asosan, yirik sanoat zonolari yoki erkin iqtisodiy hududlarga moslashtirilgan bo‘lib, kichik sanoat zonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi [10].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham kichik sanoat zonalarining rivojlanish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligini baholash ko‘pincha alohida ko‘rsatkichlar yoki tavsifiy tahlil darajasida qolib ketmoqda [11]. Hududlar kesimida kichik sanoat zonalarining holatini qiyosiy baholashga imkon beruvchi, ilmiy asoslangan va amaliyotda qo‘llashga qulay integrallashgan indikatorlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqolada hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda mavjud fragmentar yondashuvlarni bartaraf etishga qaratilgan, hududlararo solishtirish imkonini beruvchi integrallashgan indikatorlar tizimini takomillashtirish ilmiy muammo sifatida ilgari suriladi. Taklif etilayotgan yondashuv kichik sanoat zonalarining faoliyatini kompleks baholash hamda ularning rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot metodologiyasi kichik sanoat zonalarining murakkab, ko‘p omilli iqtisodiy tizim ekanligidan kelib chiqib, ularning faoliyatini faqat alohida ko‘rsatkichlar orqali emas, balki o‘zaro bog‘liq indikatorlar majmui asosida baholash zaruratiga tayanadi [1].


Tadqiqot jarayonida metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu yondashuv kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiyotning tarkibiy elementi sifatida ko‘rib chiqib, ularning boshqaruv, infratuzilma, iqtisodiy natijadorlik va innovatsion jarayonlar bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlash imkonini beradi [2]. Tizimli yondashuv kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda fragmentarlikni bartaraf etish va yaxlit baholash modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda solishtirma tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul yordamida kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholash bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlar o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlab olindi [3]. Solishtirma tahlil natijalari integrallashgan indikatorlar tizimini shakllantirishda eng maqbul va amaliy jihatdan asoslangan mezonlarni tanlash imkonini berdi.

Integrallashgan indikatorlar tizimini ishlab chiqishda konseptual umumlashtirish usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali kichik sanoat zonolari samaradorligini tavsiflovchi

alohida indikatorlar guruhlanib, ularning mazmuniy o‘xshashligi va funksional bog‘liqligi asosida asosiy bloklarga ajratildi [4]. Natijada indikatorlar tizimi hududiy kichik sanoat zonalarining faoliyatini ko‘p qirrali va kompleks baholashga yo‘naltirildi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati indikatorlarni tanlash mezonlarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Mazkur mezonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, indikatorlarning iqtisodiy mazmunan asoslanganligi; ikkinchidan, ularning amaliyotda o‘lchash va monitoring qilish imkoniyati; uchinchidan, hududlararo solishtirishga mosligi; to‘rtinchidan, kichik sanoat zonalarining rivojlanish jarayonlarini to‘liq aks ettira olishi [5]. Ushbu mezonlar asosida shakllantirilgan indikatorlar tizimi nazariy jihatdan puxta hamda amaliy qo‘llash uchun qulay hisoblanadi.



### 1-rasm. Hududiy kichik sanoat zonalarini samaradorligini baholash metodologiyasining konseptual modeli<sup>1</sup>

Metodologik yondashuv asosan nazariy tahlil, konseptual asoslash va ilmiy umumlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu maqolaning nazariy-metodologik xarakterini belgilaydi. Shu bilan birga, taklif etilgan metodologiya kelgusida empirik tadqiqotlar, hududlar kesimida baholash hamda integrallashgan indekslarni hisoblash uchun metodik asos vazifasini bajaradi (1-rasm).

Hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashga kompleks yondashuvni ta‘minlab, integrallashgan indikatorlar tizimini asoslash uchun zarur poydevorni yaratadi [7]. Shakllantirilgan metodologik yondashuv hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan integrallashgan indikatorlar tizimini nazariy va uslubiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

kichik sanoat zonalarining faoliyatini alohida ko'rsatkichlar orqali emas, balki o'zaro bog'liq indikatorlar majmui asosida kompleks baholash imkonini yaratadi.

Taklif etilgan metodologiya amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maqsadida rasmiy statistik ma'lumotlar bilan bog'lanib, keyingi bo'limda hududiy kichik sanoat zonalarining real iqtisodiy ko'rsatkichlari misolida qo'llaniladi. Xususan, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, investitsion faollik va moliyaviy natijalar integrallashgan indikatorlar tizimi doirasida tahlil qilinib, metodologik yondashuvning amaliy ahamiyati va qo'llanilish imkoniyatlari asoslab beriladi.


Shu tariqa, mazkur metodologiya keyingi "Amaliy natijalar" bo'limida hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini kompleks baholash va olingan natijalarni ilmiy talqin qilish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligi respublika darajasidagi umumiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi. Kichik sanoat zonalarining joylashuvi, infratuzilmaviy ta'minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish salohiyati hamda rezidentlar faolligi hududlar bo'yicha bir xil emas. Shu sababli respublika miqyosida shakllangan umumiy statistik natijalar hududiy tafovutlarni hisobga olgan holda talqin qilinishi lozim.

Integrallashgan indikatorlar tizimi O'zbekiston Respublikasida KSZ amaldagi faoliyat ko'rsatkichlari misolida sinovdan o'tkazildi. Amaliy baholash uchun 2025-yilning yanvar-sentabr oylarini qamrab olgan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu yondashuv metodologiya bo'limida taklif etilgan indikator bloklarining real iqtisodiy jarayonlarni qay darajada aks ettira olishini aniqlash imkonini berdi.

KSZlarning umumiy ko'lam va institutsional holati shuni ko'rsatadiki, 2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra respublikada 417 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritib, ularning tarkibida 3199 ta rezident korxonasi mavjud. Mazkur ko'rsatkich kichik sanoat zonalarining hududiy sanoatni tashkil etishdagi institutsional ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Rezidentlar sonining nisbatan katta bo'lishi boshqaruv va institutsional samaradorlik indikatorlari nuqtai nazaridan KSZlar iqtisodiy faollikni hududlar kesimida jamlash vazifasini bajarayotganini anglatadi (2-rasm).



**2-rasm. Integrallashgan indikatorlar tizimi asosida KSZlarning amaliy baholash mexanizmi.<sup>1</sup>**

KSZlarning iqtisodiy natijadorligi va bandlik ko'rsatkichlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida korxonalar tomonidan 13 402,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarilgan. Ushbu natija iqtisodiy natijadorlik indikatorlari KSZlar faoliyatini baholashda markaziy o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hisobot davri oxirida KSZlarda 39 384 nafar xodim band bo'lib, davr davomida 9 267 ta yangi ish o'rni yaratilgani ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri sezilarli ekanini ko'rsatadi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Kichik sanoat zonalarining asosiy iqtisodiy va bandlik ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar–sentabr)<sup>2</sup>**


Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	KSZ
Kichik sanoat zonalari soni	dona	417
Rezident korxonalar soni	dona	3 199
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ish, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	13 402,5
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	990,9
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	794,4
Hisobot davri oxirida band bo'lgan xodimlar soni	kishi	39 384
Hisobot davrida yangi yaratilgan ish o'rinlari	o'rin	9 267

<sup>1</sup> Muallif ishlanamsi

<sup>2</sup> Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar–sentabr oylariga oid rasmiy ma'lumotlari asosida tuzildi.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	KSZ
Hisobot davri oxirida mavjud ish o'rinlari soni	o'rin	44 900
Foyda solig'ini to'lashdan oldingi foyda	mlrd so'm	399,7
Respublika tashqarisiga yuklab jo'natilgan mahsulotlar (eksport) hajmi	mlrd so'm	3 568,2

Amaliy baholash natijalariga ko'ra, investitsion faollik va moliyaviy natijalar kichik sanoat zonalarida tarkibidagi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 990,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich investitsion faollik indikatorlari KSZlarning rivojlanish istiqbolini baholashda muhim ekanini ko'rsatadi. Moliyaviy natijalar tahlili esa foyda solig'ini to'lashdan oldingi foyda miqdori 399,7 mlrd so'mga teng bo'lganini ko'rsatib, KSZlarning iqtisodiy barqarorligi va rentabelligi mavjudligini tasdiqlaydi (3-rasm).



**3-rasm. KSZlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

Olingan amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarida samaradorligini baholashda faqat bitta ko'rsatkichga tayanish yetarli emas. Ishlab chiqarish hajmi, bandlik, investitsiyalar va moliyaviy natijalar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilingandagina KSZlarning hududiy iqtisodiyotdagi haqiqiy o'rni aniqlanadi. Shu ma'noda, taklif etilgan integrallashgan indikatorlar tizimi kichik sanoat zonalarining hozirgi holatini kompleks baholash hamda ularning rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Integrallashgan indikatorlar tizimi kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda metodologik jihatdan asoslangan va amaliyotga tatbiq etish uchun qulay vosita hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlar bilan bog'langan ushbu yondashuv

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

hududlar kesimida solishtirma tahlil o'tkazish va sanoat siyosati bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar kichik sanoat zonalari samaradorligi hududlar kesimida turlicha ekanini ko'rsatib, integrallashgan indikatorlar tizimi yordamida ushbu tafovutlarni aniqlash va ularni hisobga olgan holda rivojlanish ustuvorliklarini belgilash imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi hududiy kichik sanoat zonalari samaradorligini baholashda integrallashgan indikatorlar tizimini hududiy kesimda qo'llash imkoniyatini asoslab berganidadir.

Hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholash muammolarini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish hamda ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan integrallashgan indikatorlar tizimini ishlab chiqishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik sanoat zonalarining samaradorligini faqat alohida iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash ularning hududiy iqtisodiyotdagi real o'rni va rivojlanish salohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, baholash jarayonida boshqaruv, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, iqtisodiy natijadorlik hamda innovatsion va kooperatsion faollik omillarini kompleks hisobga olish zarur.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan integrallashgan indikatorlar tizimi kichik sanoat zonalarining faoliyatini ko'p qirrali baholash imkonini berib, hududlar kesimida solishtirma tahlil o'tkazish uchun yagona metodik asosni shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'tkazilgan amaliy baholash natijalari kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish hajmi, bandlik, investitsion faollik va moliyaviy natijalar bo'yicha sezilarli iqtisodiy salohiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbatlar ayrim hududlarda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

Amaliy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, integrallashgan indikatorlar tizimi kichik sanoat zonalarining joriy holatini baholash bilangina cheklanmay, ularning rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va hududiy sanoat siyosatini asoslashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv qaror qabul qiluvchi organlar uchun kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli va differensial siyosat yuritish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholashda integrallashgan indikatorlar tizimini hududiy monitoring amaliyotiga joriy etish;
- baholash natijalari asosida hududlar kesimida ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va resurslarni manzilli taqsimlash;
- iqtisodiy natijadorlik bilan bir qatorda boshqaruv va infratuzilmaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish; integrallashgan baholash natijalaridan kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha strategik

- va dasturiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda taklif etilgan integrallashgan indikatorlar tizimi hududiy kichik sanoat zonalarining samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy asoslangan va amaliyotga tatbiq etish uchun qulay metodik vosita bo'lib, kelgusida empirik tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
3. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 156 p.
4. Fujita M., Thisse J.-F. Economics of Agglomeration: Cities, Industrial Location, and Regional Growth. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 466 p.
5. OECD. Industrial Parks and Regional Development: Policy Lessons. – Paris: OECD Publishing, 2019. – pp. 45–78.
6. World Bank. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. – Washington, DC: World Bank Group, 2017. – pp. 21–56.
7. Farole T., Akinci G. Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions. – Washington, DC: World Bank, 2011. – pp. 89–122.
8. UNIDO. Industrial Parks and Zones: Experiences and Lessons Learned. – Vienna: UNIDO, 2020. – pp. 63–94.
9. Asian Development Bank. Industrial Infrastructure and Regional Competitiveness. – Manila: ADB, 2018. – pp. 101–134.
10. Ismailov B.X. Hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2018. – 186 bet.
11. Xolmatov N.Sh. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №4. – 52–61-betlar.
12. Zaynutdinov Sh.N. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda sanoat zonalarining o'rni // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – 2022. – №2. – 34–41-betlar.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2019-yil.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Kichik sanoat zonalarini faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom. – Toshkent, 2021-yil.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik sanoat zonalarini faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar–sentabr). – Rasmiy statistik axborot. – Toshkent, 2025-yil.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, dekabr, 12-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**